

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING RO‘LI

Raimova Dilfuzaxon Maxammadsoliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va Musiqa ta’limi” kafedrası

dotsenti

dilyadj88@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124166>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish – bu insonning jismonan, aqlan ma’naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Maqolada musiqaning inson ongiga ta’siri, uning davolovchi xususiyatlari hamda yoshlar ma’naviyatida qay darajada muhim ekanligi to’g’risida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: shaxs, jamiyat, tafakkur, ma’naviyat, musiqa, kompozitor, qo’shiq, maqom, tovush, obraz, san’at.

THE ROLE OF MUSIC IN SHAPING THE SPIRITUAL OUTLOOK OF YOUNG PEOPLE IN UZBEKISTAN

Abstract. In three articles, personality development, upbringing and observation is the process of physical, mental and spiritual maturation of a person. The article discusses the impact of music on the human mind, its healing properties, and how important it is in the spirituality of young people.

Key words: personality, society, thinking, spirituality, music, composer, song, status, sound, image, art.

РОЛЬ МУЗЫКИ В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье развитие, воспитание и становление личности – это процесс физического, психического и духовного взросления человека. В статье рассматривается влияние музыки на сознание человека, ее целебные свойства, а также то, насколько она важна в духовности молодежи.

Ключевые слова: человек, общество, мышление, духовность, музыка, композитор, песня, статус, звук, образ, искусство.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ 4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan musiqiy ta’lim tasviriy san’at va muhandislik grafikasi, texnologiya ta’limi, jismoniy madaniyat, chaqiriqqacha harbiy ta’lim hamda maktabgacha va boshlang’ich ta’limda jismoniy tarbiya va sport yo‘malishlari bo‘yicha 3 yillik bakalavrlk ta’limi joriy etildi. Oliy pedagogik ta’lim tizimida mutaxassis-o‘qituvchilar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.¹

Bugungi kunda barkamol shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish bu – insonning jismonan, aqlan ma’naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o‘ziga

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz O‘zbekiston, T..2016 14-bet

xos tomonlari mavjud. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim ro‘l o‘ynaydigan san‘at turidir.

Qadimgi Gretsiyaning eng gullab yashnagan vaqti eramizdan avvalgi IV V asrlarga to‘g‘ri keladi. Ulug‘ madaniyatimiz uncha ko‘p bo‘lmagan halq tomonidan yaratildi²

Musiqa inson ruhiyatidagi eng nozik va samimiy tuyg‘ularni oddiy 7 nota bilan aks ettira oladigan san‘at turidir. Butun dunyoda faqat shu 7 nota C,D,E,F,G,A,H (Do, re mi, fa, sol, lya, si) ishlatiladi ammo bir-birini takrorlamas go‘zal kuylar yaralaveradi. Musiqaning bu sehrli olamiga oshno bo‘lgan qalblar doimo ezgulik suvi ila sug‘orilgan bo‘ladi. Ma‘naviyatimizga xos bo‘lgan milliy, mumtoz kuylarimiz, maqom yo‘lidagi kuy qo‘shiqlarimizni, jahon klassik kompozitorlari asarlarini tinglash orqali yoshlarni samimiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin. Bunday musiqalarni tinglagan va shunday musiqalar butun umri davomida hamroh bo‘lgan insonlar ma‘nan yetuk insonlar bo‘lib tarbiya topadilar.

Arxeologlarning topilmalaridan ma‘lum bo‘lishicha, XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, allaqachon yo‘qolib ketgan dunyoni topishga muyassar bo‘lishadi. U yerda to‘la ajoyib go‘zallikka (Kritdagi Knoss saroyi qoldiqlari), shuningdek, ulug‘vor qattiqqo‘llikka (Janubiy Gretsiyaning Miken qal‘asi xarobalariga) duch keladilar.³

Eramizdan oldingi IV asrda grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san‘atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi.” Uning shogirdi Aristotel komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi: “Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma‘lum darajada ta‘sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta‘sir etadi.” Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr al-Forobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta‘sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu fan shu ma‘noda foydaliki, kimning fe‘l atvori muvozanatni yo‘qotgan bo‘lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo‘lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog‘ligi uchun ham foydalidir.” degan edi.

Zero bilim olish va ilm yo‘lini tanlash bugungi kun va o‘tkan davrlarda ham jamiyatning asosiy bo‘lagi va maqsadi bo‘lib hizmat qilgan Isak Nyuton aytganidek “O‘qigan sari bilmasligimni bilib boryapman” olimning ushbu so‘zlari yillar avval aytilgan bo‘lsada hali hamon insoniyatda ilmga, bilim olish muhim ekanligini anglatadi

Yuqoridagi bir nechta allomalarning fikridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki musiqa va uni kelajak avlodga o‘rgatish shaxs kamolotini tarbiyalashda asosiy vazifalardan biri bo‘lib hizmat qiladi. Musiqa sadolari eshitgan inson ongini va tafakurrini rivojlantiribgina qolmasdan ma‘lum ma‘noda orzu va maqsadlar uyg‘ota oladi. Cholg‘u asbobida ijro eta oladigan musiqachi o‘zining olamini ham yarata oladi. Ijro etiladigan kuy har bir insonga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan tinglovchining hayotiy kechinmalarini, esga soladi, qalbga sokinlik, ruxiyatga poklik, mo‘tadillik baxsh etadi, fe‘l-atvoriga ham sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Ibn sino ham o‘zining “Kitob ashshifo” asarlarida buni ko‘p bor keltirib o‘tgan bo‘lib musiqa terapeyasi bilan davolash be‘mor insonlarni ijtimoiy hayotga qaytarishga asos bo‘la oladi. Musiqa

² I.Ibrohimov O.A, Xudoyev. G‘M “Musiqa tarixi” Barkamol fayz media nashriyot T.2018 12-bet

³ I.Ibrohimov O.A, Xudoyev. G‘M “Musiqa tarixi” Barkamol fayz media nashriyot T.2018 12-bet

tinglagan kishining aqliy faoliyati, dunyoqarashi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inson borki musiqa u bilan hamisha birga har bir inson o'z yoshiga va qiziqishlariga qarab musiqa tinglaydi. Yosh ulg'aygan sari musiqalarning ritmi (usuli) ham asta pasayadi. Bu aslida tabiiy holatdir.

Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Muqaddas islom dinimizda ham, bu dinni muqaddas kitobimiz bo'lmish Qur'oni Karimning oyatlarini talaffuz, qiroat qilishda ham musiqiy ritm va laddlardan foydalaniladi. Shuning uchun bu oyati karimalarni tinglaganlarning qalbi taskin topishi, ezgulik tuyg'ulari bilan to'lishi, qandaydir ilohiy sokinlikka erishishi hatto ilm fan tomonidan ham isbotlangan. Qur'oni Karim oyatlarini tinglaganlar ularning ma'nolariga tushunmasa ham har qanday insonlarga bir xilda sokinlik tuyg'ularini baxsh etgani mutaxassislar tomonidan isbotlangan. Bu esa musiqaning Alloh taolo tomonidan berilgan ulug' bir ne'mat ekanligiga yana bir dalildir.

Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy sofflik, san'atga va hayotga estetik munosabat – shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. Bolalar qobiliyati aktiv musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi.

MUSIQA UQUVI (qobiliyat) - insonning musiqa asaridagi tovushlar (baland-pastlik, metr, ritm, tembr xususiyatlari)ni eshita bilish, ularning izchillik mazmunini tushunib ovoz yoki biror cholg'uda ijro eta olish qobiliyati. Musiqa uquvining asosiy ikki pogonasini ajratib ko'rsatish⁴

Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, ilmlarni olish va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiya berishda musiqa san'atining o'rni, shu jumladan butun jamoatchilik manfaatdor bo'lgan umumdavlat ishidir. Tarbiya-ta'lim ishlari davlat tomonidan bajarilishi ham istiqbol ehtiyojlari bilan taqozo etgan hayotiy zaruratdir. Bolalik chog'idan farzandlarimizga to'g'ri musiqiy ta'lim berish, yosh avlod qalbi va ongida ezgu g'oyalarni shakllantirish, ularni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarimizga hurmat, fidoyilik ruhida tarbiyalash uchun respublika bo'yicha ko'p sonli musiqa maktablari, etnografik jamoalar, xo'r to'garaklari o'rni alohidadir. Bugungi kunda bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim oluvchi o'quvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Musiqa ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirishga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yaxshilash" bo'yicha davlatimiz tomonidan Qarorlarning qabul qilinishi soha rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Soha rivoji uchun qabul qilingan Qarorlarda yosh avlodning iste'dodini har tomonlama kamol toptirish va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarni milliy va jahon musiqalari, tasviriy san'atining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish, bolalar musiqa va san'ati maktablarini rivojlantirish hamda zamonaviy moddiy texnik bazasini shakllantirish borasida qat'iy chora-tadbirlar belgilanganligi bilan e'tiborli bo'ldi.

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi O harfi «O'zbek milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 850-bet

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki yoshlarni ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalashda musiqa san'atining tutgan o'rni respublikamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan tub islohotlar bilan bog'liq holda ravnaq topmoqda.

Bugungi kun talaba yoshlarini kelajakda o'z o'rnini topa olishida tizimda yetarli shart - sharoitlar yaratib berilmoqda. Davlat mukofotlarini topshirish, nomdor stipendiyantlarning soni kundan kunga ko'payib borishi, talabalarni chet davlatlarida o'qishlarini davom ettirishi, PISA tizimi orqali yoshlarni o'qib bilim olishlari, yoshlarni jumladan qiz ayollarni bakalavrdan kegingi ta'limni davom ettirishdagi imkoniyatlar barkamol shahsni tarbiyasiga hizmat qiladi

REFERENCES

1. Ibrohimov O.A, Xudoyev. G'M "Musika tarixi" Barkamol fayz media nashriyot T.2018 12-bet
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi O harfi "O'zbek milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 850-bet
3. Djalilova, D. (2024). Formation of hermeneutic competence of future music education teachers in the analysis of music texts. В international bulletin of engineering and technology (Т. 4, Выпуск 1, сс. 34–37).
4. Djalilova, D. O. (2023). CHOLG'U ANSAMBLI VA MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASH. SCHOLAR, 1(28), 277–287. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026753>
5. A.Qambarov,S.Mannopov, M.Najmeddinova O'zbek san'ati tarixi "Farg'ona" nash 2021.
6. N.Yusupova Musiqa savodi, metodikasi va ritmika "Musika" nash. T..2010